



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Dastlabki ma'lumot
2024 - yil yanvar- avgust



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-203-88-20(21)

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar-sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 601 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 180 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 421 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar- avgust oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 56 229,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 109,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 24 899,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,8%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 31 330,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 583,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 121,6 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	56 229,4	109,5
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	5 094,3	106,0
Bektemir	2 095,8	109,9
Yunusobod	6 014,4	111,4
Mirzo Ulug'bek	4 615,8	108,4
Mirobod	4 410,9	105,4
Shayxontohur	6 530,8	110,4
Olmazor	4 156,9	110,6
Sirg'ali	3 226,4	118,7
Yakkasaroy	4 596,2	115,2
Yashnobod	4 779,2	115,3
Yangihayot	898,7	115,5
Chilonzor	9 809,9	103,6


2024- yilning yanvar- avgust oylarida 2023- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan Toshkent shahrining Sergeli (118,7 %), Yangihayot (115,5 %) va Yashnobod (115,3 %) tumanlarida chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati
dinamikasi (yanvar- avgust)**



So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 115,1 % ni tashkil qildi.


**2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati,
oylar kesimida (foizda)**



2024- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 17,4 % bilan 9 809,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,6 % bilan 898,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-avgust oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 31 330,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 6,3 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 55,7 % ni tashkil etdi.


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 13,8 % ga o'sdi va 24 899,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 44,3 % ulushiga to'g'ri keldi.



Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

112,1	Shayxontohur
114,0	Uchtepa
123,4	Mirobod
126,7	Mirzo Ulug'bek
127,0	Yakkasaroy
136,2	Yashnobod
147,2	Sergeli

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar


 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (20,1%), Uchtepa (13,4 %) va Yunusobod (10,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 44,3 % ni tashkil etib, eng kata ulush Chilonzor (14,1 %), Shayxontohur(13,7 %), Yakkasaroy (11,1 %), Yashnobod (10,6 %) tumanlarida kuzatildi.

44,3 %



55,7 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Toshkent shahri

18 387,6

Yangihayot

5 066,0

Uchtepa

16 981,1

Chilonzor

35 607,5

Bektemir

33 967,7

Yunusobod

15 894,2

Mirzo Ulug'bek

13 882,2

Mirobod

28 867,2

Shayxontohur

17 829,1

Olmazor

10 231,2

Sirg'ali

19 034,9

Yakkasaroy


34 046,0

Yashnobod

15 793,8

2024- yilning yanvar- avgust oylari holatiga o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 18 387,6 ming. so'mni (2023- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 106,7 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'satkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Chilonzor (35 607,5 ming. so'm), Yakkasaroy (34 046,0 ming. so'm) va Bektemir (33 967,7 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- avgust), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari


Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rnlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023 - yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	1 583,9	121,6
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	68,3	57,4
Bektemir	332,2	84,2
Yunusobod	250,1	198,4
Mirzo Ulug'bek	191,4	99,8
Mirobod	17,5	27,1
Shayxontohur	247,3	177,2
Olmazor	62,9	182,9
Sirg'ali	47,9	96,8
Yakkasaroy	32,2	68,8
Yashnobod	149,8	172,9
Yangihayot	-	-
Chilonzor	184,2	4,0 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar- avgust)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-avgust)

Toshkent sh.	1 583,9
Uchtepa	68,3
Bektemir	332,2
Yunusobod	250,1
Mirzo Ulug'bek	191,4
Mirobod	17,5
Shayxontohur	247,3
Olmazor	62,9
Sirg'ali	47,9
Yakkasaroy	32,2
Yashnobod	149,8
Yangihayot	-
Chilonzor	184,2

Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 583,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 121,6 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1425,6 mlrd.so'mni (122,9%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 158,4 mlrd so'mni (111,2%) tashkil etdi .

2024-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 1 425,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (772,0 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 772,0 mlrd. so'm  48,7 %	Non va non mahsulotlari 173,8 mlrd. so'm  11,0 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 69,9 mlrd. so'm  4,4 %
Tovuq go'shti 70,4 mlrd. so'm  4,4%	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 36,9 mlrd. so'm  2,3 %	Tuxum 34,2 mlrd. so'm  2,2 %
Ziravorlar 87,1 mlrd. so'm  5,5 %	Sut va sut mahsulotlari 113,0 mlrd. so'm  7,1 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil vem – xashak 0,1 mlrd. so'm  0,01 %
Tuzlamalar 34,8 mlrd. so'm  2,2 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 31,1 mlrd. so'm  2,0 %	Nooziq-ovqat tovarlar 2,4 mlrd. so'm  0,1 %

2024- yilning yanvar-avgust oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 158 361,9 mln. so'mni (111,2 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 130 885,2 mln.so'm, qo'y va echkilar – 21 715,1 mln. so'mni, otlar – 5 385,2 mln. so'mni, parrandalar – 376,4 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar
77 756,7 mln. so'm	23 902,9 mln. so'm	29 225,6 mln. so'm
4,9 %	1,5 %	1,8 %

Qo'yilar	Otlar	Echkilar
18 008,8 mln. so'm	5 385,2 mln. so'm	3 706,3 mln. so'm
1,1 %	0,3 %	0,2 %

Kurka, o'rdak, g'oz	Tovuqlar	Quyonlar
79,6 mln. so'm	46,3 mln. so'm	161,2 mln. so'm
0,005 %	0,003 %	0,01 %

Qushlar
89,3 mln. so'm
0,006 %



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1- yanvar-sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 956 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 46 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 910 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	6 526,4	113,1
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	134,8	119,9
Bektemir	123,0	140,1
Yunusobod	804,8	110,8
Mirzo Ulug'bek	642,9	113,0
Mirobod	866,2	192,0
Shayxontohur	1 381,7	85,6
Olmazor	374,3	112,6
Sirg'ali	471,6	115,0
Yakkasaroy	585,2	106,6
Yashnobod	413,1	113,7
Yangihayot	105,3	146,7
Chilonzor	623,4	128,9

2024- yilning yanvar- avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 6 526,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 57,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	35 359,3	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	673,9	2,3
Bektemir	1 424,4	4,3
Yunusobod	3 904,3	13,5
Mirzo Ulug'bek	986,7	3,3
Mirobod	4 104,1	14,4
Shayxontohur	2 704,1	9,9
Olmazor	380,1	1,3
Sirg'ali	9 827,5	33,8
Yakkasaroy	1 774,7	5,8
Yashnobod	1 229,1	3,9
Yangihayot	574,2	2,7
Chilonzor	1 402,9	4,8


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (11 947,5 mlrd. so'm), Mirobod (5 096,7 mlrd. so'm) va Yunusobod (4 777,6 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar- avgust oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash* va *texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 35 359,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,9 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 12 103,6 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 144,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 23 255,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 124,8 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 116 949,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

35,1 %

41 066,8 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

64,9 %

75 883,1 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 75 883,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 64,9 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar-santabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 16 899 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 258 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 16 641 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Bektemir (128,1%), Mirobod (113,9 %) va Uchtemir (111,8 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri tumanlar:		
Uchtemir	116 949,9	108,0
Bektemir	6 500,7	111,8
Yunusobod	1 970,3	128,1
Mirzo Ulug'bek	11 555,7	108,7
Mirobod	10 167,3	111,0
Shayxontohur	14 090,9	113,9
Olmazor	7 214,1	108,0
Sirg'ali	15 637,8	107,1
Yakkasaroy	5 234,7	91,8
Yashnobod	14 141,1	108,7
Yangihayot	15 541,2	107,1
Chilonzor	2 409,1	107,3
	12 487,0	103,7